

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SIFAT SO'Z TURKUMINING O'QITILISHI

Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi

*Qo'qon Universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi Tel: (91)
2002073, e-mail:imomaliyevamusharrafxon@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida sifat so'z turkumining o'qitilishi masalalari yoritilgan. Unda sifatning leksik-grammatik xususiyatlari, nutqdagi o'rni hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining til boyligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, sifatlarini o'qitishda qo'llaniladigan ilg'or pedagogik metodlar, interfaol usullar, ta'limiy o'yinlar va mashqlar tizimi keltirilgan. Maqolada sifat so'z turkumini o'zlashtirish orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish hamda fikrni aniq ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim darslarida sifatlarini samarali o'qitish bo'yicha amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: Sifat, so'z turkumi, metod, sifatlarining xususiyatlari, boshlang'ich ta'lim, boshlang'ich sinf, dars, metod, tadqiqot.

Abstract: This article discusses the issues of teaching adjectives in primary education. It analyzes the lexical and grammatical characteristics of adjectives, their role in speech, and their importance in increasing the language skills of primary school students. It also presents advanced pedagogical methods, interactive methods, educational games, and a system of exercises used in teaching adjectives. The article pays special attention to the development of students' oral and written speech, the formation of aesthetic taste, and the development of clear expression skills through the mastery of adjectives. The results of the study are enriched with practical recommendations for the effective teaching of adjectives in primary school classes.

Keywords: Adjective, word class, method, characteristics of adjectives, primary education, primary class, lesson, method, research.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы обучения прилагательным в начальной школе. Анализируются лексико-грамматические особенности прилагательных, их роль в речи и значение в развитии языковых навыков учащихся начальной школы. Представлены современные педагогические методы, интерактивные методы, развивающие игры и система упражнений, используемые при обучении прилагательным. Особое внимание уделяется развитию устной и письменной речи учащихся, формированию эстетического вкуса и развитию навыков ясного выражения мыслей через освоение прилагательных. Результаты исследования дополнены практическими рекомендациями по эффективному обучению прилагательным в начальной школе.

Ключевые слова: Прилагательное, класс слов, метод, характеристики прилагательных, начальное образование, начальный класс, урок, метод, исследование.

KIRISH

Yangi O'zbekistonning kelajagi yosh avlod qo'lida ekanligi hech kimga sir emas albatta. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarni belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida 2019-yil 29-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-sonli "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.¹

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish, yozishni o'rganibgina qolmay, balki mustaqil fikrlashi, faollik darajasi, o'z ustida yanada ko'proq ishlab, kelajakda musataqillikni rivojlantirishi va bilimlarni mukkamal egallashi uchun o'qituvchilar ta'lim jarayoniga muhim bosqich sifatida yondashmoqdalar.

Asosiy qism.

Sifatlarni o'rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat predmetning belgi (rangi, hajmi, shakli va ko'rinishi, maza-ta'mi, xarakter-xususiyati, hidi, vazni, o'rin va paytga munosabati)ni bildiradi. Sifatning leksik ma'nosi uni ot bilan bog'liq holda o'rganishni talab qiladi. Boshlang'ich sinflarda "sifat" mavzusi quyidagi izchillikda o'rganiladi:

- 1) sifat bilan dastlabki tanishtirish (I, II);
- 2) sifat haqida tushuncha berish (III sinf);
- 3) shu grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim sifatlarning yozilishini o'zlashtirish (IV sinf).

"Sifat" tushunchasi shakllantirish o'quvchilarning "Predmet belgisi" degan umumlashtirilgan kategoriyani o'zlashtirish darajasiga bevosita bog'liq. Shu maqsadda rang, maza, shakl-hajm, xil-xususiyat bildiradigan so'zlar guruhlanadi va shu so'zlarning xususiyatlari umumlashtiriladi. Sifatning leksik ma'nosi bilan birga uning xarakterli grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi. Sifatlarning xususiyatlarini umumlashtirish asosida o'quvchilar uning so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos ko'rsatkichlarini ajratadilar:

- a) predmet belgisini bildiradi,
- b) qanday? yoki qanaqa? so'rog'iga javob bo'ladi,
- c) gapda otga bog'lanib, shu ot bilan so'z birikmasi hosil qiladi,
- d) ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi.

Bu sinfda og'zaki va yozma ijodiy ishlar (maktab bog'i yoki parkka ekskursiya vaqtida kuzatilgan daraxt, qushlar, hayvonlarni tasvirlab kichik hikoya tuzish kabilar)ga katta o'rin beriladi.

O'quvchilarning sifatning leksik ma'nosi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni har tomonlama tasvirlash malakasini o'stirish uchun:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmoni.

1)berilgan predmetlarning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish:Qanday shaftoli? shirin, suvli, tuksiz shaftoli.Qanday kitob?Qalin, qizil kitob:

2)berilgan belgilariga qarab qaysi hayvon ekanini aniqlash:Tikanli, kichkina,.....(tipratikan), Ehtiyotkor, ayyor, yovvoyi.....(tulki);

3)predmetlarning belgisiga qarab topishmoqlarning javobini ayting kabi mashqlardan foydalanish mumkin.

Sifatning nutqimizdagi, fikrini aniq va tushunarli ifodalashdagi o'rnini puxta o'zlashtirishga erishish uchun ma'nodosh va zid ma'noli sifatlar ustida ishlash, o'qish darslarida sifatning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni o'rganish jarayonida so'z yasashga oid mashqlarni muntazam o'tkazib borish o'quvchilarda u yoki bu so'z turkumini yasash uchun so'z yasovchi qo'shimchalardan ongli foydalanish malakasini shakllantiradi. Sifatlar gapda otlarga bog'lanib keladi: zangori osmon, mevali bog', ko'rkam bino.Sifat yasovchi qo'shimchalar –li, -siz, -dor, -ki, -qi, -ser, -ba, -i va boshqalar. Sifatning tuzilishiga ko'ra 4-turga bo'linadi. Sodda, qo'shma, juft, takroriy. Sodda sifat 2 ga bo'linadi: tub va yasama. Juft sifatlar tarkibida –u, -yu qo'shimchalari kelishi mumkin ajratib yoziladi.Masalan:yaka-yu yagona va boshqalar.Tarkibida ser- qo'shimchasi bo'lgan sifatlar ham oddiy darajadagi sifatlar deyiladi.Masalan; sermeva, seryog.....

Boshlang'ich sinflarga sifat so'z turkumini o'rgatishda biror bir ertakni o'qib sifatlarini ko'rsatib berish kerak.Masalan rus xalq ertagi "Bo'g'irsoq"

Bo'g'irsoq ertagida chol va kampir bo'ladi. Bir kuni cholning bo'g'irsoq yegisi keladi. Kampiriga menga bo'g'irsoq pishirib ber deydi. Kampir unimiz yo'qku deydi. Kampir suprani qoqib bo'g'irsoqga yetadigan unni yig'ibdi.Kampir uni qaymoqda qoribdi, zuvala yasab bo'g'irsoq qilibdi va pechga joylabdi. Bo'g'irsoq qizarib, chiroyli bo'lib pishibdi:(Qanday pishibdi? qizarib,chiroyli bo'lib). Kampir uni pech ichidan olib, deraza raxiga quydi sovishi uchun.Yotaverib zerikkan bo'g'irsoq asta dumalab derazadan tushib dumalab ketdi:(qanday dumaladi?asta dumaladi.)Bo'g'irsoq yo'lda dumalab ketayotib, bir quyonni uchratib qolibdi:(Qanday?dumalab.):Meni yema, quyonvoy, men senga qo'shiq aytib beraman, debdi va qo'shiqini aytib undanam dumalab qochib ketibdi.(qanday? dumalab) va shu tarzda bo'rini ko'radi, ayiqni ko'radi ularniyam aldab dumalab ketadi:(qanday?dumalab) oxiri ayyor tulkini ko'radi endi unga qo'shiq aytib beraman deb aytib berayotganida tulki men seni ovozingni eshitmayapman meni burnimga chiqib ayt degan ekan burniga chiqib aytganida ayyor tulki uni yeb qo'yadi.(Qanday tulki? Ayyor tulki).

Boshlang'ich sinf ona tilidan nazariy bilimlar, o'quvchilarni o'qishga o'rgatish badiiy matnlar tahlili asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham badiiy asar matnlari o'quvchilar lug'atini boyitishda va nutqini o'stirishda eng asosiy manba sanaladi. Nutqimizdagi so'z boyligimiz katta qismi atrofimizdagi narsa va hodisalar, harakat-holatning, belgi-xususiyatlarning nomi sifatida vujudga kelgaan. Bola maktabga kelgan kunidan boshlab, talim jarayonida tilning lug'aviy birikmalarini o'zlashtirib boradi.

O'quvchi lug'atning boyishiga, birinchi navbatda, uni o'rab olgan muhit, o'qish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqot katta ta'sir ko'rsatadilar. Sifat tilshunoslikda predmet belgisini bildiruvchi so'zlar turkumi. Gramatikada belgi so'zi keng tushunchali bo'lib, u belgini rang-tus, hajm, shakl ko'rinish, xususiyat va shakliga ko'ra bildiradi: qizil, keng, yoqimli, shirin, achiiq va boshqalar. Shu xususiyatlariga ko'ra, sifatlar ma'nosiga qarab bir necha turga bo'linadi: rang-tusni bildiruvchi sifatlar-oq, sariq, yashil, ko'k, moviy, nimrang kabi; maza ta'mni bildiruvchi sifatlar; shirin, achiiq, nordon, bemaza kabi; xususiyatini bildiruvchi sifatlar; mehribon, soda, oq ko'ngil, mug'ambir, yuvosh kabi; shakl ko'rinishini bildiruvchi sifatlar; gavgdali, novcha, uzun, uzunchoq, yassi kabi; hajm o'lchovni bildiruvchi sifatlar; keng, tor, katta, og'ir, yengil kabi va boshqalar.

Xulosa

Boshlang'ich ta'lim sifat so'z turkumini o'qitishda o'qituvchilar har xil metodlardan foydalanishlari kerak. O'quvchilarni shu mavzuga qiziqtirish kerak. Masalan: O'quvchilarga biror bir mevami kanfetmi berib, bu qanday narsa shirinmi yo achiiqmi deb o'rgatish kerak.

Keyin o'quvchilar tushunadilar. Boshida aytib o'tganimdek biror bir ertagni olib o'qib berib sifatlarini ko'rsatsa o'quvchilarni eslab qolishi oson bo'ladi. Masalan; Bo'g'irsoq ertagi o'quvchilarning sevimli ertaglaridan biridir. Bunda sifatlar juda ko'p, dumaloq, qizarib, chiroyli, ayyor tulki va boshqalar. O'quvchilar sevimli ertaglari qanday so'z turkumiga kirishi o'rganadilar va bilib oladilar. O'quvchilarni ertakka bo'lgan qiziqishlari yanada oshadi va ertak o'qib uni tahlil qilib borishadi.

O'quvchilarga uy sharoitida ishlatiladigan narsalarni ba'zilar sifat ekanini ham tushuntirish mumkin. Masalan; oshxona jihozlari, sabzavotlar, uyning kataligi yo kichikligi, mevalar shirinligi yo rangi va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogik instituti S.Matchonov, H.Bakiiyeva, X.G'ulomov, Sh. Yo'ldoshev, G Xolboyeva, Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi darslik, "Ishonchli hamkor" nashriyoti.

2. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami Nargiza Erkaboyeva . "Yosh kuch" Toshkent-2021.

3. Immomaliyeva, M.I.(2021, Aprel). THE EVOLUTION OF MATAPHORICAL MEANING. In E-Conference Globe(pp.25-26).

4. MAKTABGACHA INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 408-411.

5. Zarnigor, E. (2023). MTTDA QABUL QILINGAN "BOLAJON" VA "ILK QADAM" O'QUV DASTURLARINING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI. QO'QON UNIVERSITETI XABAR NOMASI, 434-438.

6. Soporboyeva, M. M. (2023). BOSHLANG'ICH SIF O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA ABDULLA AVLONIYNING "TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ"ASARINING O'RNI.
7. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(09), 187-191.
8. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In E-Conference Globe (pp. 25-26).
9. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 121-123.
10. Musharrafxon, I., & Nigora, M. (2024). YOSH AVLODGA KITOBXONLIK KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O 'RNI. Kokand University Research Base, 216-219.
11. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 271-276.
12. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 173-176.
13. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In Конференции.